

## O'RXUN-ENASOY YOZUVLARIDA AJDODLARIMIZ TARIXI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

*Ahmedshina Faniya Avzalovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori*

*Qovulov Jo'rabek Mo'min o'g'li*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Vatanimiz tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi O'rxun-Enasoy yozuvlari, uning yaratilishi, mazmun-mohiyati, topilishi va ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilinishi tarixi xususida so'z boradi. Ma'lumki, bir qator madaniy o'lkalar, davlatlar qatori O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududidan topilgan ushbu runiy bitiklar xalqimizning ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o'rganish bo'yicha asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Lena-Baykalbo'yi yodgorliklari, Enasoy yozuvlari, Mug'ulistondan topilgan yozuvlar, Oltoy yodgorliklari, Sharqiy Turkiston yozuvlari, O'rta Osiyodan topilgan yozuvlar, Kultegin, Bilga xoqon, Tunyuquq, Ongin, Turfon vohasidagi bitiklar.

Tarixiy manbalar – bu insonning qo'li va aql-zakovati bilan yaratilgan barcha predmetlar va asarlar majmuidir. Tarixiy manbalar deganda inson va kishilik jamiyati o'tmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklari tushuniladi. Bunday tarixiy, moddiy, yozma, epigrafik manbalar insoniyat tarixida ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lib, ular orasida Vatanimiz tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar beruvchi turkiy yozma yodgorliklar alohida ahamiyat kasb etadi.

Turkiy xalqlar tarixini o'rganishda turk-runik epigrafik yodgorliklari muhim o'rin tutadi. Toshga, metall va sopol buyumlarga, taxtachalar va boshqa predmetlarga bitilgan turkiy epigrafik yozuvlar Lenadan Dneprgacha va Enasoydan Amudaryogacha cho'zilgan keng hududlarda topilgan. Fanda ular quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: Lena-Baykalbo'yi yodgorliklari; Enasoy yozuvlari; Mug'ulistondan topilgan yozuvlar; Oltoy yodgorliklari; Sharqiy Turkiston yozuvlari; O'rta Osiyodan topilgan yozuvlar [Arslonzoda R. A. 88 b.]

Enasoy yodgorliklarining dastlabki namunalari ilk marotaba XVII asrning oxirlarida rus xaritashunos olimi S.U.Remezov tomonidan hozirgi Xakasiya Respublikasi hududidan topilgan edi. Keyingi yillarda shunga o'xshash yozuvlarni Poltava jangida (1710) ruslarga asirga tushib, Sibirga surgun qilingan shved zobiti F.Stralenberg ham topdi.

Enasoy yozuvlari to'g'risidagi ilk xabar XIX asrning birinchi choragida “Sibirskiy vestnik” gazetasida chop etildi. 1889-yilda fin olimlari Enasoy epigrafik

yodgorliklari xaritasini tuzdilar. Turk-runik yozuvlarining katta guruhi hozirgi Mo'g'uliston hududida, O'rxo'n daryosi havzasida joylashgan va fanga “O'rxo'n bitiklari” nomi bilan kirgan. Ular orasida Tunyuquq, Kultegin, Bilga xoqon va Ongin sharafiga bitilgan yozuvlar alohida ajralib turadi [Qayumov A. va b. 73-74 b.]. Quyida ularning ayrim tar'riflariga to'xtalib o'tamiz.

Tunyuquq yozuvi 1897-yilda rus olimlari Dmitriy Aleksandrovich va Yelizaveta Nikolayevna Klemenslar tomonidan Shimoliy Mo'g'ulistonga uyushtirilgan ekspeditsiya davomida topildi. Mazkur yozuv Ulan-Batordan 66 km janubroqda joylashgan. Bitiktosh 712-716-yillarda Sharqiy Turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqon (681-691), uning vorislari Kapag'an (691-716) va Bilga xoqon (716-734) hukmronligi davrida ularning maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan Tunyuquq sharafiga bitilgan.

Yozuv ro'parama-ro'para joylashgan, balandligi 160 va 170 sm bo'lgan ikkita tosh plitaga Tunyuquqning hayotlik chog'idayoq uning shaxsiy ko'rsatmasiga muvofiq bitilgan. Bitik avtobiografik mazmunga ega bo'lib, unda yozilishicha, turk zodagonlaridan birining farzandi bo'lgan Tunyuquq bolaligidan Tabg'ach (Xitoy) imperatorining saroyida garovda saqlanib tarbiyalangan. Balog'atga yetgandan so'ng, u harbiy xizmatga jalb etilib, xitoyliklar bosib olgan chegara hududda xizmat qilgan. Bundan Tunyuquq o'z maqsadi yo'lida foydalandi: u dastlab Xitoyga qarshi qo'zg'olon ko'targan Qutlug' tomoniga o'tdi, keyinchalik o'z vataniga qaytib kelib, yuqorida zikr etilgan xoqonlarning ishonchli odamiga aylandi [Arslonzoda R. A. 88-89 b.].

Bitikda Tunyuquq boshchiligida turklar amalga oshirgan qator zafarli harbiy yurishlar va turklarning o'z dushmanlari ustidan qozongan g'alabalari haqida so'z yuritiladi. Tunyuquq yodgorligi V.V.Radlov, V.Tomsen, X.Sheler, D.Ross va G.Aydarov kabi olimlar tomonidan yaxshi o'rganilgan. Uning matni hamda nemis, rus, ingliz va daniya tillariga qilingan tarjimalari e'lon qilingan. Tunyuquq bitigini 1982-yilda G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlar o'zbek tiliga o'girib, nashr qilishdi [Madraimov A., Fuzailova G. 134-135 b.].

Navbatdagi nodir epigrafik manba Kultegin bitigi bo'lib, u rus olimi N.M.Yadrinsev tomonidan 1889-yilda topilgan. Bitik Bilga xoqonning ko'rsatmasi bilan ukasi, Eltarish xoqonning kichik o'g'li, 47 yoshida vafot etgan Kultegin sharafiga bunyod etilgan [[www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz). internet sayti]. Yozuv marmardan yasalgan plitaga bitilgan. Uning eni quyi qismda 1 m 24 sm, yuqori qismda 41 sm, balandligi esa 3 m 15 sm ni tashkil etadi. Plita pastdan tepaga qarab torayib boradi. Taklif etilgan xitoylik ustalar plitaga ishlov berib, silliqdashgan, matnni esa Kulteginning jiyani – Yullug'tegin tuzgan va o'yib yozgan.

Kultegin bitigi sermazmundir. U Bilga xoqonning o'z taabalariga murojaati bilan boshlanadi. O'z murojaatida xoqon ularni birlikka, hushyorlikka chorlaydi, Tabg'ach

hukmdorlari makru hiyla va sovg‘a-salomlar bilan turk xalqini qullikka solmoqchi ekanligini ma’lum qiladi. Shu yerda Bilga xoqonning xalq uchun qilgan xizmatlari tilga olinib, uning sharofati bilan “qashshoq va oz sonli [turk] eli badavlat va ko‘p sonli xalq bo‘lgan”ligi ta’kidlanadi. Ushbu bitikning e’tiborga loyiq yana bir jihati shundaki, unda turk davlatchiligi tarixiga nazar tashlanadi [Sodiqov Q. 67-70 b.].

Matn muallifi Turk xoqonligining asoschilari – Bumin va Istami xoqonlarni esga olib, ular xalq manfaatlarini ruyobga chiqarish, qonunchilik va davlatchilikni mustahkamlash haqida qayg‘urgan barkamol hukmdorlar bo‘lganlar, deb yozadi. Muallif afsus va nadomat bilan keyingi xoqonlar bunday sifatlarga ega bo‘lmaganligi, oqibatda esa turk xalqi Tabg‘achga qaram bo‘lib, mahv bo‘lish darajasiga kelganini aytadi. Shunda, deyiladi bitikda, Tangri aytdi: “Turklar yashasin, ular el bo‘lsin” va Eltarish xoqon bilan uning oqila ayoli Elbilga-xotunni yubordi. Turk xalqining boshiga tushgan kulfatni bartaraf etish uchun Eltarishning vorisi, uning o‘g‘li Bilga xoqon ko‘p xizmatlar qildi. U nafaqat tarqoq qabilalarni birlashtirdi, balki xalqni to‘ydirdi, uni boy qildi [[www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz). internet sayti]. Bu ishda unga sarkardalar Tunyuquq va Kultegin yordam berdilar. Bu vaqtga kelib Tunyuquq qarib qolganligi uchun xoqonlikni asrab qolish vazifasi Kultegin zimmasiga tushdi.

Bitikning yakuniy qismida Kultegin faoliyati yoritilgan. Davlatni mustahkamlashda hamda az, qarluq, to‘qqiz-o‘g‘uz va boshqa xalqlarni bo‘ysundirishda uning xizmatlari katta ekanligi qayd etiladi. Mazkur bitikda Kulteginning vafoti Bilga xoqon uchun ham, butun turk xalqi uchun ham katta yo‘qotish ekanligi ta’kidlanadi. Bitikda xoqonning nomidan yozilgan quyidagi satrlarni o‘qiymiz: “O‘zim alam chekdim. Ko‘rar ko‘zim ko‘rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo‘ldi”[Rahmon Nur. 78 b.].

Matnning so‘ngida Kulteginning dafn marosimiga qo‘shni yurtlardan tashrif buyurgan mehmonlar ro‘yxati hamda mazkur xotira yozuvining yaratilishi sanasi qayd etiladi. Kultegin bitigini tadqiq va nashr etilishi, boshqa tillarga tarjima qilinishi V.V.Radlov, A.Xeykel, V.Tomsen, P.M.Melioranskiy, X.Sheder, S.E.Malov va G.Aydarov kabi olimlarning faoliyati bilan bog‘liq. Ushbu bitikni o‘zbek tiliga G‘.Abdurahmonov va A.Rustamovlar tarjima qilishgan.

Navbatdagi fikr yuritmoqchi bo‘lgan manbimiz Bilga xoqon bitigi Kultegin bitigi bilan bir vaqtda, undan bir kilometr nariroqdan topilgan. Bilga xoqon 734-yilda o‘z yaqinlaridan biri tomonidan zaharlab o‘ldirildi, bir yildan keyin esa ushbu yozuv yaratildi[Ahmedov B. 126 b.]. Bitikning balandligi 3 m 45 sm, eni 1 m, qalinligi 72 sm ni tashkil etadi. O‘z mazmuni va yozuv uslubiga ko‘ra, Kultegin bitiga o‘xshaydi, ayrim joylari u bilan deyarli bir xil. Bu tasodifiy hol emas, chunki bu bitikning ham muallifi Yullug‘tegin edi.

Bilga xoqon bitigi uning taxtga chiqishi haqidagi hikoyadan boshlanadi. Xoqon zakovkatli inson bo‘lganligi bois “Bilga” (“Dono”) degan laqabni oldi. Bilga xoqon

saltanat chegaralarini kengaytirishga, qo‘shni xalqlar va qabilalarni qo‘shib olishga ko‘p sa‘y-harakat qildi. Kultegin bitigidagi singari, muallif bu yerda ham uning Olticho‘b va Tabg‘achga, shuningdek tangutlar, idiqutlar, chiklar, qirg‘izlar ustiga qilgan yurishlarining aniq sanalarini ko‘rsatib o‘tadi. Bitikning oxirida Bilga xoqonning o‘z taabalariga qilgan vasiyati keltirilgan. Unda aytiladiki, agar xalq o‘z xoqoniga ergashsa, o‘zining yeri va suvini (ya‘ni, vatanini) asrasa, bu xalq baxtli, betashvish yashaydi. Bilga xoqon bitigi V.V.Radlov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen kabi olimlar tomonidan o‘rganilib, turli tillarga tarjima qilingan[Arslonzoda R. A. 90-92 b.].

Yana bir qimmatli manba Ongin bitigi bo‘lib, uning kimga atalganligi noma‘lumligicha qolmoqda. Ayrim olimlar bu yozuv Eltarish xoqon va uning rafiqasi Elbilga-xotun sharafiga yozilgan desa, boshqa tadqiqotchilar Qapag‘an xoqonga bag‘ishlangan, deydilar. J. Kloson esa bu yozuv Bilga xoqonning sarkardalaridan biri – Alp Elitmish (taxminan 731-yilda vafot etgan) sharafiga yozilgan, deb taxmin qiladi.

Ongin bitigining matni V. V. Radlov va J. Kloson tomonidan nashr etilgan. Oltoy bitiklaridan Charish va Katandi daryolari sohillari, shuningdek, Qo‘shog‘och va boshqa tog‘li hududlardagi yozuvlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin[Arslonzoda R. A. 92 b.]. O‘rxo‘n-Enasoy yodgorliklaridan farqli o‘laroq, ularda talay etnografik ma‘lumotlar uchraydi.

Bundan tashqari Sharqiy Turkistondan ham bitiklar topilgan bo‘lib, ular orasida Turfon vohasidagi g‘orda joylashgan ibodatxona devoridagi yozuvlar ajralib turadi. Sopol parchalari va sopol buyumlarga bitilgan qadimiy turkiy yozuv namunalari Farg‘ona va Oloy vodiylaridan, O‘zbekiston va Tojikistonning janubidan topilgan.

Yuqoridagi bitiklarga o‘xshash manbalar Markaziy Osiyoning Qozog‘iston hamda Qirg‘iziston davlatlaridan ham topilgan va lekin, ular hali chuqur o‘rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidan (Ayritom, Teraksoy, Qulonsoy, Toldiqo‘rg‘on, Urjor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolg‘ar, Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muxim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Qozog‘iston hamda Qirg‘iziston hududidan topilgan bitiklarning ba‘zilari S. Sodiqov, M. Y. Masson, A. N. Bernshtam, A. S. Omanjlov, G. Musaboyev, Ch. Jumag‘ulov hamda G. Karag‘ulovalar tomonidan e‘lon kilingan. Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg‘ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O‘zbekiston va Tojikiston hududidan, ya‘ni Bekobod, Isfara, Marg‘ilon, Farg‘ona, Andijon, Quvasoy, O‘sh, O‘zgan, Kofirnihon, shuningdek So‘g‘ddan ham topilgan. Ushbu bitiklar A. N. Bernshtam, B. A. Litvinskiy, V. A. Bulatova, E. R. Tenishev, Y. A. Zadneprovskiy tarafdin atroflicha o‘rganilgan[Madraimov A., Fuzailova G. 135-136 b.].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, insoniyat tarixini o‘rganishda tarixiy manbalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Imoratni qurilish materiallarisiz qurib bo‘lmaganidek, o‘tmishni

ham tarixiy manbalarsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Odamlar o‘zlarining ijtimoiy-tarixiy faoliyati jarayonida uzluksiz ravishda hayotiy tajriba orttirib, uni keyingi avlodlarga qoldiradilar. Buning uchun ular turli buyum, inshoot, hujjat, yozuv, rasm yoki asarlar yaratib, axborotni moddiy obyektlar shaklida kodlashtiradilar. Tarixiy manbalar va manbashunoslikning mohiyatini anglash uchun bu g‘oyat muhim jihat hisoblanadi.

Shu jihatdan kelib chiqib aytish mumkinki, Turk epigrafik yodgorliklari turkiy xalqlarning yozuvi va madaniyati namunasi sifatida qadrlidir. Ayni vaqtda ulardan turkiy xalqlarning tarixi, hayoti va turmushi to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar olish mumkin. Bular orasida XVII asrda Sibir hamda Mo‘g‘ulistonda, Oltoy hamda O‘rta Osiyo, O‘zbekiston hududlarida topilgan runiy bitiklar alohida qimmatga ega. Bu yozuvlarning hozir yetti guruhi: Lena-Baykalbo‘yi bitiklari, Yenisey, Mo‘g‘uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, Urta Osiyo bitiklari ma‘lum. Bu bitiklar O‘rta Osiyo, shuningdek, O‘zbekiston xalqlarining arablar istilosi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o‘rganishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ahmedov B. A. O‘zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. 2001.
2. Arslonzoda R. A. Manbashunoslik. Farg‘ona 2022.
3. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent. 2008.
4. Qayumov A., Is‘hoqov M., Otaxo‘jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. Toshkent. 2000.
5. Rahmon N. Turk xoqonligi. Toshkent. 1993.
6. Sodiqov Q. Ko‘k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini. Toshkent. 2004.
7. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz). internet sayti.